



EPISTEMOLOGICAL, ONTOLOGICAL AND AXIOLOGICAL DIFFERENCES BETWEEN POSTMODERNISM AND ISLAMIC PHILOSOPHY

Islomjon Nurmurodov

*Master's student in Philosophy at Sharof Rashidov Samarkand State University
Samarkand, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: Islamic philosophy, postmodernism, truth, ontology, epistemology, axiology, relativism, metaphysical realism, subject, metanarrative, deconstruction, revelation and reason, normativity, transcendence.

Received: 15.03.26

Accepted: 16.03.26

Published: 17.03.26

Abstract: This article provides a philosophical analysis of the epistemological, ontological, and axiological differences between Islamic philosophy and postmodernism. Drawing on the ideas of prominent postmodern thinkers such as Jean-François Lyotard, Michel Foucault, and Jacques Derrida, the study examines the relativization of truth, skepticism toward metanarratives, the deconstruction of the subject, and the socially constructed nature of knowledge. In contrast, the paper demonstrates that within the classical tradition of Islamic philosophy—represented by thinkers such as Abu Nasr al-Farabi, Ibn Sina (Avicenna), and Abu Hamid al-Ghazali—truth is understood as a reality grounded in an ontological foundation, originating from a transcendent source and serving as a basis for moral and normative order. The study argues that the metaphysical realism of Islamic philosophy can offer a systematic critical response to postmodern relativism. At the same time, the critical methodology of postmodernism may also function as an important intellectual tool that alerts religious thought to the potential dangers of dogmatism. The article concludes that the relationship between Islamic philosophy and postmodernism should not be interpreted merely as an antagonistic opposition, but rather as a complex interaction between different philosophical paradigms that, in certain respects, may complement each other.

POSTMODERNIZM VA ISLOM FALSAFASI O'RTASIDAGI EPISTEMOLOGIK, ONTOLOGIK VA AKSIOLOGIK TAFOVUTLAR

Islomjon Nurmurodov

Sharof Rashidov nomidagi SamDU falsafa yo'nalishi magistranti

Samarqand, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Islom falsafasi, postmodernizm, haqiqat, ontologiya, epistemologiya, aksiologiya, relativizm, metafizik realizm, sub'ekt, metanarrativ, dekonstruksiya, vahiy va aql, normativlik, transsendentlik.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Islom falsafasi va postmodernizm o'rtasidagi epistemologik, ontologik hamda aksiologik tafovutlar tahlil qilinadi. Postmodern tafakkur, xususan Jan Fransua Lyotar, Mishel Fuko, Jak Derrida qarashlari asosida haqiqatning relativlashuvi, metanarrativlarga ishonchsizlik va subyektning dekonstruksiya masalalari yoritiladi. Unga qarama-qarshi ravishda, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino va Abu Hamid al-G'azzoliy an'anasidagi Islom falsafasi haqiqatni ontologik asosga ega, transsendent manbadan kelib chiqadigan va axloqiy normativlikni ta'minlovchi reallik sifatida talqin qilishi ko'rsatib beriladi. Maqola Islom metafizik realizmi postmodern relativizmga nisbatan qanday tanqidiy pozitsiya egallashi mumkinligini tizimli ravishda asoslaydi. Shu bilan birga, postmodernizmning tanqidiy metodologiyasi diniy tafakkurni dogmatizm xavfidan ogohlantiruvchi muhim intellektual omil ekanligi ham qayd etiladi. Natijada, ikki paradigma o'rtasidagi ziddiyat antagonistik inkor emas, balki o'zaro to'ldiruvchi yondashuvlar sifatida talqin qilinadi.

ЭПИСТЕМОЛОГИЧЕСКИЕ, ОНТОЛОГИЧЕСКИЕ И АКСИОЛОГИЧЕСКИЕ РАЗЛИЧИЯ МЕЖДУ ПОСТМОДЕРНИЗМОМ И ИСЛАМСКОЙ ФИЛОСОФИЕЙ

Исломжон Нурмуродов

Магистрант философского направления

Самаркандского государственного университета имени Шарофа Рашидова

Самарканд, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: исламская философия, постмодернизм, истина, онтология, эпистемология, aksiologiya, релятивизм, метафизический реализм, субъект, метанарратив, деконструкция, откровение и разум, нормативность, трансцендентность.

Аннотация: В данной статье проводится философско-теоретический анализ эпистемологических, онтологических и аксиологических различий между исламской философией и постмодернизмом. На основе идей представителей постмодернистской мысли — Жана-Франсуа Лиотара, Мишеля Фуко и

Жака Деррида — рассматриваются такие концепции, как релятивизация истины, недоверие к метанарративам, деконструкция субъекта и социально-конструктивная природа знания. В противоположность этому показано, что в традиции исламской философии, представленной трудами Абу Насра аль-Фараби, Ибн Сины и Абу Хамида аль-Газали, истина трактуется как реальность, обладающая онтологическим основанием, происходящая из трансцендентного источника и обеспечивающая нормативные морально-этические ориентиры. В статье обосновывается, каким образом метафизический реализм исламской философии может занимать критическую позицию по отношению к постмодернистскому релятивизму. Вместе с тем отмечается, что критическая методология постмодернизма способна выступать важным интеллектуальным фактором, предупреждающим религиозную мысль о рисках догматизма. В результате делается вывод о том, что отношения между исламской философией и постмодернизмом следует рассматривать не как антагонистическое отрицание, а как сложное взаимодействие различных философских парадигм, которые в определённых аспектах могут выступать взаимодополняющими подходами.

Kirish. XX asrning ikkinchi yarmida shakllangan postmodern tafakkur, ayniqsa Jan-Fransua Lyotar, Mishel Fuko va Jak Derrida falsafiy qarashlarida, g'arb metafizikasining asosiy tamoyillarini, ya'ni mutlaq haqiqat, subyekt markaziyliqi, metanarrativlarning legitimligini rad etish bilan tavsiflanadi. Postmodernizm "haqiqat"ni diskursiv konstruksiya, bilimni esa hokimiyat tarmoqlariga bog'liq fenomen sifatida talqin qiladi. Bunga qarama-qarshi ravishda, islom falsafiy an'anasi, xususan Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino va Abu Homid G'azzoliy haqiqatni ontologik jihatdan asoslangan, zaruriy va transsendent manbaga ega reallik sifatida talqin qiladi. Bu ikki paradigma o'rtasidagi tafovut oddiy metodologik farq emas, balki ontologik-epistemologik darajadagi tub ziddiyatdir. Mazkur maqolaning maqsadi - islom falsafasining postmodernizmga nisbatan mumkin bo'lgan tanqidiy pozitsiyasini tizimli ravishda asoslash hamda bu tanqidni metakritik darajada chuqurlashtirishdir.

Asosiy qism. Postmodernizmga ko'ra, haqiqat diskurslar o'rtasidagi kuch munosabatlari mahsulidir. Mishel Fuko uchun bilim neytral emas, aksincha u hokimiyat mexanizmlariga singib ketgan[1:27–28]. Uning fikricha, jamiyatda “haqiqat rejimlari” mavjud bo'lib, qaysi bilim shakllari haqiqiy deb tan olinishi aynan ijtimoiy institutlar va hokimiyat tizimlari orqali belgilanadi. Shu sababli bilim ishlab chiqarish jarayoni har doim muayyan ijtimoiy nazorat mexanizmlari bilan bog'liq holda shakllanadi. Ya'ni hokimiyat bilimni yaratadi, bilim esa hokimiyatni legitimlashtiradi. Jan Fransua Lyotar “metanarrativlarga ishonchsizlik”ni zamonaviylikdan keyingi holatning belgisi sifatida ko'rsatadi[2:10]. Uning fikricha, modern davrda insoniyat tarixini tushuntiruvchi universal g'oyalar, ya'ni taraqqiyot, aqlning ustuvorligi yoki umumiy ozodlik g'oyasi bilimni legitimlashtiruvchi asosiy narrativlar bo'lib xizmat qilgan. Postmodern holatda esa bunday umumiy tushuntirish modellari o'z ishonchliligini yo'qotadi va ularning o'rnini turli lokal diskurslar egallaydi. Natijada bilim yagona markazga ega tizim sifatida emas, balki ko'plab kichik hikoyalar va fragmentar interpretatsiyalar majmui sifatida talqin qilina boshlaydi. Jak Derrida ma'noni uzluksiz deferensiya jarayonida talqin qiladi. Uning fikricha, matndagi ma'no hech qachon yakuniy va qat'iy shaklda mustahkamlanmaydi, balki doim boshqa belgilar bilan aloqada shakllanadi. Shu sababli matnni bitta qat'iy interpretatsiya bilan chegaralash mumkin emas, u doimo yangi talqinlarga ochiq qoladi. Derrida bu jarayon orqali til tizimining o'zida mavjud bo'lgan noaniqlik va siljish mexanizmlarini ko'rsatib beradi, natijada ma'no doimiy ravishda keyingi kontekstlar tomon surilib boradi [3:423].

Islom falsafasida esa haqiqat ontologik kategoriya, borliqning o'ziga xos sifati bo'lib, bilish jarayonidan mustaqil mavjud hioblanadi. Forobiy va Ibn Sino ontologiyasida mavjudotlar zaruriy va mumkin bo'lgan mavjudotlarga ajratiladi. Zaruriy mavjudot (vojib al-vujud) ontologik asos sifatida haqiqatning manbaidir [4:67]. Agar borliq zaruriy asosga ega bo'lsa, u holda haqiqat ham nisbiy konstruktsiya emas, balki mavjudlikning strukturaviy elementi hisoblanadi.

Bu yerda tanqid metakritik shakl oladi. Agar postmodernizm haqiqatni diskursiv mahsul deb bilsa, uning o'zi ilgari surayotgan nazariya ham diskursiv konstruktsiyadan iborat bo'ladi. Demak, u universal da'vo qila olmaydi. Aks holda, u inkor qilayotgan metanarrativning o'ziga aylanadi. Islom metafizikasi esa haqiqatni ontologik zaruratga bog'lash orqali o'zini ichki inkordan himoyalaydi. Haqiqat mavjudotning asosiy sifati bo'lib, u bilishning sharti, natijasi emas.

Postmodern relativizmga ko'ra, haqiqat yagona va obyektiv mohiyat sifatida mavjud emas. U turli diskurslar va interpretatsiyalar orqali shakllanadi [5:15]. Ammo uning oqibati ontologik skeptitsizmga olib keladi. Islom falsafasida esa ontologik realizm ustuvordir. Ibn Sino mavjudlikni mohiyatdan ajratadi va mavjudlikni real akt sifatida asoslaydi. Bu ontologik

struktura haqiqatni subyektiv idrokdan mustaqil reallik sifatida tasdiqlaydi. Agar haqiqat to'liq relativlashsa, ilmiy bilimning normativligi zaiflashadi, axloqiy hukmlar asosdan mahrum bo'ladi, metafizik savollar ma'nosizga aylanadi. Islom tafakkurida esa borliq tartibli va maqsadga yo'naltirilgan. Bu nazariya haqiqatni semantik emas, ontologik kategoriya sifatida mustahkamlaydi.

Derrida ilgari surgan dekonstruksiya konsepsiyasi matnning yakuniy ma'noga ega emasligini ta'kidlaydi [6:158-163], ya'ni ma'no doimiy deferensiya jarayonida siljiydi. Bu yondashuv metafizik markazni rad etadi. Islom tafsir an'anasida esa matn ko'p qatlamli (zohir va botin), lekin bu ko'p qatlamlilik chegarasiz emas. Ma'no ilohiy hikmat doirasida joylashgan. Tafsir metodologiyasi semantik ko'plikni tan oladi, biroq uni ontologik asos bilan bog'laydi. Shu nuqtada asosiy tanqid yuzaga keladi: Agar ma'no mutlaqo barqaror bo'lmasa, normativ hukm ham barqaror bo'la olmaydi. Axloqiy me'yorlar semantik o'yinlarga aylanadi. Bu esa amaliy hayotda nigilistik oqibatlarga olib kelishi mumkin. Islom falsafasi uchun esa haqiqat va ma'no inson amaliyoti bilan uzviy bog'liq. Haqiqat faqat bilish obyekti emas, balki amal mezonidir.

Postmodernizm subyektini markazdan tushiradi. "Men" mustaqil mohiyat emas, balki til va ijtimoiy konstruksiyalar mahsuli sifatida ko'riladi. Ibn Sino esa insonni ruhiy-intellektual substansiya sifatida talqin qilinadi [7:173]. Inson o'zini idrok eta oladigan mavjudot bo'lib, o'zining ontologik birligini saqlaydi. Bu birlik axloqiy mas'uliyatning asosidir. Agar subyekt parchalanib ketgan konstruksiya bo'lsa, javobgarlik ham nisbiylashadi. Islom falsafasida esa mas'uliyat ontologik maqomdan kelib chiqadi. Lyotar metanarrativlarga ishonchsizlikni postmodern holatning belgisi deb ko'rsatadi. Din esa, shubhasiz, yirik metanarrativlardan biridir. Islom falsafasi bu yerda muhim farqni ta'kidlaydi: Vahiy oddiy tarixiy narrativ emas, u ontologik asosga ega haqiqat bayonidir. Agar barcha metanarrativlar rad etilsa, "metanarrativlarga ishonchsizlik"ning o'zi ham umumiy da'voga ega metanarrativga aylanadi. Bu esa postmodernizmning ichki paradoksini ko'rsatadi. Shunday qilib Islom falsafasi postmodernizmni quyidagi asoslarda tanqid qiladi. Haqiqatning ontologik asosini himoya qilish, relativizmning performativ ziddiyatini ochib berish, normativlik va axloqiy mezonlarning zarurligini asoslash, subyektning ontologik barqarorligini saqlash. Biroq bu tanqid rad etish shaklida emas, balki chegaralash shaklidir.

Postmodernizmning hokimiyat va diskurs haqidagi tahlillari diniy institutlarni tanqidiy ko'rib chiqish imkonini beradi. Shu ma'noda, postmodernizm islom falsafasi uchun metodologik ogohlantirish vazifasini bajarishi mumkin. Postmodernizmning eng kuchli tezislaridan biri - bilimning ijtimoiy-shartlanganligidir. Mishel Fuko nazarida har bir bilim shakli ma'lum tarixiy "bilish" jarayonining ichida yuzaga keladi va hokimiyat tuzilmalari bilan chambarchas bog'liq.

Bu qarash zamonaviy bilim nazariyasida muhim tanqidiy instrument vazifasini o'taydi. U mutlaq obyektivlik haqidagi sodda tasavvurlarni shubha ostiga qo'yadi. Biroq Islom falsafasi epistemologiyani faqat tarixiy-konstruktiv jarayon sifatida emas, balki ontologik asosga ega bilish imkoniyati sifatida ko'radi. Abu Nasr Forobiy va Ibn Sino tafakkurida aql insoniy quvvat sifatida mavjud bo'lib, u borliq tartibini idrok eta oladi. Bilish jarayoni tasodifiy diskurs emas, balki mavjudotning ontologik tuzilishiga muvofiq keluvchi harakatdir. Postmodernizm bilimni diskurslar va interpretatsiyalar mahsuli deb ko'radi. Islom falsafasi esa bilimni mavjudlik haqiqatini anglash jarayoni deb tushunadi. Agar bilim faqat konstruktsiya bo'lsa, haqiqatning o'zi ham tarixiy o'zgaruvchanlikdan tashqariga chiqa olmaydi. Natijada, epistemologiya normativ asosdan mahrum bo'ladi. Islom falsafasi esa bilishni "mavjudlik darajalari" bilan uyg'unlikda ko'radi: hissiy bilish, aqliy bilish va vahiy orqali keladigan ilohiy bilim. Ayniqsa Abu Hamid al-G'azzoliy tajribasida shubha bosqichi mavjud bo'lsa-da, u radikal skeptitsizm bilan tugamaydi, aksincha, u aql va qalb uyg'unligiga olib keladi. Shu jihatdan, Islom falsafasi postmodernizmni "epistemologik negativizm"da ayblashi mumkin, ya'ni u bilishning cheklanganligini ko'rsatadi, lekin bilishning transsendent asosini bermaydi.

Postmodern tafakkurda axloqiy universalizm shubha ostiga olinadi. Metanarrativlar rad etilganidan so'ng, axloqiy qadriyatlar ham tarixiy va madaniy konstruktsiya sifatida talqin qilinadi. Bu esa normativlikning parchalanishiga olib kelishi mumkin. Islom falsafasida esa yaxshilik va yomonlik ontologik asosga ega. Forobiy "fozil jamiyat" konsepsiyasida axloqiy tuzilmani kosmik tartib bilan bog'laydi. Insonning maqsadi kamolotga yetishish. Bu esa tasodifiy emas, balki borliqning maqsadli tuzilishiga muvofiqdir. Agar axloqiy hukmlar faqat diskurs mahsuli bo'lsa, zulm va adolat o'rtasidagi farq ham nisbiylashadi. Bu esa siyosiy nigilizm xavfini tug'diradi. Postmodernizm kuch va bilim o'rtasidagi bog'liqlikni ochib beradi, lekin "qaysi kuch legitim?" degan savolga ontologik javob bermaydi. Islom falsafasi esa adolatni ilohiy sifat sifatida talqin qiladi. Bu yerda normativlik tashqi ijtimoiy kelishuv emas, balki mavjudlikning o'zidan kelib chiqadi.

Jak Derrida va boshqa poststrukturalistlar subyektni markazdan tushiradi. "Men" barqaror mohiyat emas, balki til va ijtimoiy jarayonlar natijasidir. Bu yondashuv klassik gumanizmni tanqid qiladi. Islom falsafasida esa inson ontologik maqomga ega mavjudot. Ibn Sino "uchuvchi odam" tajribasi orqali ruhning jismdan nisbiy mustaqilligini asoslaydi [7:182]. Inson o'zini ongli ravishda idrok eta oladi. Bu esa subyektning ontologik barqarorligidan dalolat beradi. Agar subyekt parchalanadigan konstruktsiya bo'lsa, mas'uliyat tushunchasi qanday asoslanadi? Axloqiy javobgarlik uchun barqaror identitet zarur.

Postmodernizm metafizik tizimlarga shubha bilan qaraydi. Ayniqsa Jan Fransua Lyotar metanarrativlarni legitimatsiya vositasi sifatida tanqid qiladi. Bu pozitsiya tarixiy totalitar tizimlar tajribasidan kelib chiqqan holda tushunarli. Biroq Islom falsafasi uchun metafizika ideologik konstruktsiya emas, balki mavjudlikning zarur tahlilidir. Agar mavjudlikning birlamchi sababi bo'lmasa, ontologik izchillik buziladi. Borliqning tartibi, maqsadga yo'naltirilganligi va insonning kamolotga intilishi izohsiz qoladi. Shu nuqtada ikki paradigma o'rtasidagi asosiy farq ko'rinadi. Postmodernizm shubha orqali erkinlikni saqlamoqchi bo'ladi. Islom falsafasi haqiqat orqali erkinlikni asoslamqchi bo'ladi. Birinchisida erkinlik – bu strukturaviy cheklolardan xalos bo'lish bo'lsa, ikkinchisida erkinlik haqiqatni anglash orqali kamolotga yetishishdir.

Xulosa. Islom falsafasi nuqtai nazaridan postmodernizmni bir qator nazariy asoslarda tanqid qilish mumkin. Bu tanqid ikki turli falsafiy dunyoqarash - haqiqat, qadriyat va inson haqidagi tasavvurlar o'rtasidagi tafovutni ko'rsatadi.

Birinchidan, epistemologik jihatdan postmodern tafakkur haqiqatni ontologik asosga ega voqelik sifatida emas, balki tarixiy va diskursiv konstruktsiya sifatida talqin qiladi. Bunday yondashuvda bilim muayyan madaniy va til kontekstlari ichida shakllanadigan interpretatsiyalar yig'indisiga aylanadi. Islom falsafasida esa bilim borliqning o'zida mavjud bo'lgan ontologik tartibni idrok etish sifatida tushuniladi. Shu sababli postmodernizm haqiqatni ontologik asosdan uzib qo'yganligi bilan tanqid qilinadi.

Ikkinchidan, aksiologik jihatdan postmodernizm qadriyatlarni mutlaq asosga ega haqiqat sifatida emas, balki tarixiy va madaniy konstruktsiya sifatida talqin qiladi. Natijada axloqiy me'yorlar ham relativizm maydoniga tushib qoladi. Islom falsafasida esa qadriyatlar borliqning metafizik tartibi bilan bog'liq normativ asosga ega deb qaraladi. Shu bois postmodern relativizm axloqiy me'yorlarning barqarorligini shubha ostiga qo'yadi.

Uchinchidan, inson tabiatiga doir masalada postmodern yondashuv insonni barqaror mohiyatga ega mavjudot sifatida emas, balki turli ijtimoiy va madaniy konstruktsiyalar ta'sirida shakllanadigan fenomen sifatida talqin qiladi. Islom falsafasida esa inson ruhiy-intellektual mohiyatga ega mavjudot bo'lib, uning haqiqiy qadr-qimmati aql va ruhiy kamolotga intilishida namoyon bo'ladi. Shu sababli inson mohiyatining faqat konstruktiv jarayon sifatida talqin qilinishi yetarli emas deb baholanadi.

To'rtinchidan, metafizik jihatdan postmodern tafakkur ko'pincha mavjudlikning transsendent manbasi haqidagi savolni rad etadi yoki uni ikkinchi darajali masala sifatida ko'radi. Natijada borliq faqat immanent jarayonlar orqali tushuntiriladi. Islom falsafasida esa mavjudlikning o'zi transsendent asosga ega deb qaraladi va barcha mavjudotlar shu ontologik manbaga bog'liq holda tushuniladi. Biroq chuqurroq qaraganda, postmodernizm Islom

tafakkuriga ham muhim saboq beradi, ya'ni diniy diskursni tarixiy shakllar bilan aynanlashtirib yubormaslik, hokimiyat va din munosabatlarini tanqidiy ko'rib chiqish, va talqin jarayonida inson omilini unutmaslik lozim. Islom falsafasi va postmodernizm o'rtasidagi munosabat sof antagonizm emas. Ular o'rtasida epistemologik ziddiyat mavjud bo'lsa-da, bu ziddiyat ijodiy dialog imkonini ham ochadi. Islom metafizikasi haqiqatni zarur va transsendent asosga bog'laydi, postmodernizm esa bu da'volarni tanqidiy sinovdan o'tkazadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Фуко М. Том 1: Воля к знанию. — М.: Республика, 1996. — С. 27–28.
2. Лиотар Ж.-Ф. Состояние постмодерна. — М.: Институт экспериментальной социологии; СПб.: Алетейя, 1998. — С. 10.
3. Деррида Ж. Письмо и различие. — СПб.: Академический проект, 2000. — С. 423.
4. Fayzullayev O. Forobiy va Ibn Sino falsafasi. — Toshkent: Fan, 2008. -B. 67.
5. Лиотар Ж.-Ф. Состояние постмодерна. — СПб.: Алетейя, 1998. — С. 15.
6. Деррида Ж. О грамматологии. — М.: Ad Marginem, 2000. — С. 158-163
7. Авиценна. Метафизика (из «Книги исцеления»). — Ташкент: Фан, 1983. — -С. 173-182.